

## ITALYAN SIYOSIY MATNLARINI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH METODLARI

**Otaxonova Munisxon Janibek qizi**

O‘zDJTU, Italyan tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası o‘qituvchisi  
[munisaotaxonova429@gmail.com](mailto:munisaotaxonova429@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot italyan siyosiy matnlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida uchraydigan lingvistik, pragmatik, ideologik va madaniy muammolarni kompleks tahlil qiladi. Siyosiy diskursning ko‘p qatlamli tabiatidan kelib chiqib, matnlarning semantik tuzilishi, metaforik konstruksiyalari, ritorik strategiyalari va konnotativ birliklari chuqur o‘rganiladi. Shuningdek, tadqiqot italyan siyosiy matnlarining tarjimasida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan metodlar: kontekstual ekvivalent, neytrallashtirish, metaforani transformatsiya qilish, izohli tarjima va diskursiv tahlil asosidagi yondashuvlarni taklif etadi. Ishning dolzarbligi ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy, diplomatik va madaniy aloqalarning kengayib borayotgani bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari siyosiy nutq tarjimasida bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** siyosiy diskurs, tarjima strategiyalari, italyan tili, o‘zbek tili, metafora, ideologik birliklar.

**Аннотация:** Данное исследование посвящено комплексному анализу лингвистических, прагматических, идеологических и культурных проблем, возникающих при переводе итальянских политических текстов на узбекский язык. Учитывая многослойную природу политического дискурса, подробно изучаются его семантическая структура, метафорические конструкции, риторические стратегии и коннотативные элементы. В работе предлагаются эффективные методы перевода: контекстуальный эквивалент, нейтрализация, трансформация метафор, пояснительный перевод и дискурсивный подход. Актуальность исследования обусловлена расширением политических и культурных связей между Италией и Узбекистаном. Результаты могут служить практическим руководством для переводчиков политических текстов.

**Ключевые слова:** политический дискурс, переводческие стратегии, итальянский язык, узбекский язык, метафора, идеологические элементы.

**Abstract:** This research analyzes the linguistic, pragmatic, ideological and cultural challenges that arise when translating Italian political texts into Uzbek. Considering the multilayered structure of political discourse, the study examines semantic structures, metaphorical constructions, rhetorical strategies and connotative elements found in Italian political texts. The research proposes several translation methods, including contextual equivalence, neutralization, metaphor transformation,

*explanatory translation and discourse-based approaches. The relevance of the study is linked to the growing political, diplomatic and cultural relations between Italy and Uzbekistan. The findings can serve as a practical guide for translators working with political texts.*

**Keywords:** *political discourse, translation strategies, Italian, Uzbek, metaphor, ideological units.*

Siyosiy matnlar tarjimasida tarjima nazariyasining eng murakkab va ko‘p qatlamli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki siyosiy diskurs nafaqat til vositasida, balki ideologik qarashlar, madaniy kodlar, tarixiy kontekst, ritorik strategiyalar va semantik yo‘naltirishlar orqali shakllanadi. Siyosiy nutqning asosiy vazifalaridan biri auditoriyani ma‘lum bir g‘oyaga yo‘naltirish, qaror qabul qilish jarayoniga ta‘sir ko‘rsatish va ijtimoiy-psixologik kayfiyatlarni boshqarishdir. Shuning uchun siyosiy matnlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayoni oddiy ma‘nolarni ko‘chirish emas, balki ko‘p darajali semantik va pragmatik jarayonni qayta qurishdir.

O‘zbekiston va Italiya o‘rtasidagi iqtisodiy, diplomatik va madaniy hamkorlik yildan yilga kuchayib borayotgani sababli italyan siyosiy matnlarini o‘zbek tiliga sifatli tarjima qilishga bo‘lgan ehtiyoj oshmoqda. Xalqaro tashkilotlar, rasmiy xatlar, diplomatic hujjatlar, hukumat bayonotlari, siyosiy intervyular va tahliliy maqolalar ikki tomonlama aloqalarda muhim o‘rin tutadi. Shu munosabat bilan italyan siyosiy diskursning xususiyatlarini chuqur o‘rganish va uni o‘zbek tiliga mos tarjima strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning dolzarbligi siyosiy matnlarning ko‘p funksiyaliligi bilan bog‘liq bo‘lib ular axborot beradi, auditoriyani ishontiradi, baholovchi mazmun yuklaydi va ma‘lum ideologik yo‘nalishni aks ettiradi. Bu esa tarjima jarayonini yanada murakkablashtiradi. Shu sababli ushbu tadqiqot italyan siyosiy matnlarini tarjima qilishda uchraydigan asosiy muammolarni aniqlashtirish va ularni bartaraf etuvchi optimal metodlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Siyosiy matnlar tilning eng murakkab va ko‘p qatlamli shakllaridan biri bo‘lib, ular lingvistik, semantik, pragmatik va ideologik jihatlarining uyg‘unligi orqali shakllanadi. Bunday matnlar nafaqat axborot yetkazish vazifasini bajaradi, balki auditoriyani muayyan siyosiy pozitsiyaga yo‘naltirish, qarorlarni asoslash, ijtimoiy holatni boshqarish va siyosiy g‘oyalarni asosli qilib ko‘rsatish kabi funksiyalarni ham bajaradi. Shuning uchun siyosiy diskurs tilini o‘rganish doimo katta ilmiy qiziqish uyg‘otib kelgan. Siyosiy matnlarning lingvistik va pragmatik xususiyatlari ularning ichki tuzilishi, maqsadi va kommunikativ yo‘nalishiga qarab shakllanadi, shuningdek, siyosiy tizimning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Siyosiy matnlarning lingvistik xususiyatlarida, avvalo, terminologiya muhim o‘rin tutadi. Siyosiy til maxsus siyosiy, huquqiy va institutsional atamalarga boy bo‘lib,

ular ko‘pincha bir necha ma’no qatlamiga ega bo‘ladi. Masalan, *governo tecnico*, *crisi istituzionale*, *autorità garante*,  *riforma costituzionale* kabi italyanча birliklar faqat lug‘aviy ma’no emas, balki muayyan siyosiy jarayonning ideologik yoki tarixiy kontekstini ham ifodalaydi. Bunday terminlar har bir siyosiy tizimda turlicha talqin qilinishi mumkin, shu bois matnni siyosiy-madaniy kontekstdan ajratib tushunish qiyinchilik tug‘diradi. Siyosiy terminologiyani murakkabligi matnning rasmiy uslubini ham belgilaydi, chunki siyosiy til ko‘pincha byurokratik, rasmiy va normativ xarakterga ega bo‘ladi.

Siyosiy matnlarning muhim lingvistik belgilaridan yana biri metaforik konstruksiyalarning keng qo‘llanishidir. Siyosiy metaforalar o‘zbek va italyan tili siyosiy diskursida faol ishlatiladi va ular siyosiy voqelikni obrazli shaklda ifodalab, auditoriyaga kuchli emotsional ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, *“Italia è in cammino”*, *“una battaglia politica”*, *“un ponte verso il futuro”* kabi iboralar oddiy axborotni obrazli shaklga keltirib, voqelikni kuchaytirilgan ko‘rinishda beradi. Metaforalar siyosiy g‘oyalarni yanada tushunarli qilish, auditoriyani ma’lum bir fikrga emotsional yo‘naltirish va siyosiy jarayonlarni soddalashtirilgan tasvir orqali izohlash uchun xizmat qiladi. Siyosiy metaforalar ko‘pincha urush, yo‘l, inshootlar, tabiat hodisalari, tarixiy obrazlar kabi sohalardan o‘rin oladi. Bu esa siyosiy nutqning tasviriy kuchini oshiradi va uni retorik jihatdan boyitadi.

Baholovchi leksika ham siyosiy matnlarning ajralmas xususiyatidir. Siyosatchilar o‘z pozitsiyasini mustahkamlash yoki raqib partiyaning fikrini zaiflashtirish maqsadida emotsional yuklangan va baholovchi so‘zlardan foydalanadi. Masalan, *grave minaccia*, *drammatica situazione*, *risultati storici*, *decisioni coraggiose* kabi iboralar siyosiy nutqqa emotsional rang berib, voqelikni ma’lum bir nuqtai nazardan taqdim etadi. Baholovchi leksika matnning ta’sir kuchini oshiradi, chunki bunday birliklar yordamida siyosiy vaziyatning o‘ta salbiy yoki ijobiy ko‘rinishi yaratilib, auditoriyaning kayfiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatiladi.

Siyosiy matnlarning sintaktik xususiyatlari ham muhim hisoblanadi. Bunday matnlar odatda murakkab sintaktik konstruksiyalar, qo‘shma gaplar, passiv shakllar, izohlovchi qo‘shimcha birikmalar va rasmiy nutq elementlariga boy bo‘ladi. Bu lingvistik xususiyatlar matnning rasmiyligini oshiradi, biroq uni qabul qilishni qiyinlashtiradi. Siyosiy matnlar tilida passiv konstruksiyalarning keng ishlatilishi mas’uliyatni shaxsdan olib, uni umumlashtirilgan shaklda ifodalash imkonini beradi. Masalan, *“è stato deciso che...”*, *“si ritiene opportuno...”* kabi konstruksiyalar qaror kim tomonidan qabul qilinganini noaniq qoldiradi. Bu siyosiy nutqning mas’uliyatdan qochish strategiyalaridan biri hisoblanadi.

Siyosiy matnlarning pragmatik xususiyatlari esa ularning asosiy funksiyasi va maqsadini belgilaydi. Siyosiy diskursning eng muhim pragmatik vazifalaridan biri persvasiya, ya’ni ishontirish va auditoriyaga ta’sir o‘tkazishdir. Siyosiy matnlar

ko‘pincha axborot berishdan ko‘ra, auditoriyani muayyan qarorga yonaltirish, ularni birlashtirish yoki ularning qarshiligini yumshatish kabi maqsadlarda yoziladi. Shuning uchun siyosiy matnlar pragmatik jihatdan manipulyativ bo‘lishi mumkin. Auditoriyani ishontrish strategiyalari qatoriga milliy qadriyatlarni ulug‘lash, xavf tasvirini kuchaytirish, iqtisodiy yutuqlarni bo‘rttirish, muammolarni raqib zimmasiga yuklash kabi usullar kiradi. Bunday strategiyalar siyosiy matnning pragmatik kuchini oshiradi.

Diplomatik ohang ham siyosiy matnlarning asosiy pragmatik belgilaridan biridir. Rasmiy bayonotlar, xalqaro munosabatlarga oid nutqlar, hukumat qarorlari haqida xabar berishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Diplomatik ohangda baholovchi leksika yumshatilgan shaklda beriladi, keskin fikrlar noaniq ifodalar bilan almashtiriladi. Masalan, “*siamo preoccupati per la situazione*” kabi ibora aslida jiddiy norozilikni bildirsa-da, diplomatik kontekstda yumshatilgan ko‘rinishda ishlatiladi. Bu siyosiy matnlarning ko‘p qatlamli ma‘nosini ko‘rsatadi: matning yuzaki mazmuni bilan yashirin pragmatik signal bir-biridan farq qilishi mumkin.

Intertekstual birliklar ham siyosiy matnlarning pragmatik kuchini oshiradi. Siyosiy nutqda tarixiy voqealar, mashhur siyosiy arboblardan, milliy ramzlar, xalqaro shartnomalar yoki qonunlarning nomi tez-tez tilga olinadi. Bu auditoriyada umumiy xotirani uyg‘otib, davlatchilik, birlashish yoki tarixiy davomiylikni ta‘kidlaydi. Intertekstual ishoralar matnga semantik chuqurlik beradi va auditoriyaning hissiy jarayonlarini boshqarishga xizmat qiladi. Siyosiy matnlarning lingvistik va pragmatik xususiyatlari ularning ko‘p funksiyaliligi bilan chambarchas bog‘liq. Siyosiy matnlar informativ, baholovchi, persuasiv va mobilizatsion funksiyalarni bir vaqtning o‘zida bajarishi mumkin. Shuning uchun siyosiy matnlarni tushunish va tarjima qilish jarayoni nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya, siyosatshunoslik va madaniyatshunoslik omillarini ham o‘z ichiga oladi. Siyosiy matnlarni tahlil qilishda tilning yuzaki qatlamigina emas, balki uning ostidagi yashirin maqsad, ideologik signal, madaniy ishora va pragmatik strategiyalarni ham aniqlash zarur. Aynan mana shu omillar siyosiy matnlarni boshqa matn turlaridan farqlab turadi va ularni lingvistik-pragmatik tadqiqot uchun nihoyatda qimmatli ob‘ektga aylantiradi.

Italyan siyosiy matnlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida uchraydigan lingvistik, semantik, pragmatik va ideologik muammolarni bartaraf etish uchun bir qator ilmiy asoslangan metodlar qo‘llaniladi. Siyosiy diskursning ko‘p qatlamli tabiati tarjimani oddiy ekvivalent izlash jarayonidan ancha murakkab vazifaga aylantiradi, chunki har bir tilning siyosiy tizimi, madaniy tajribasi va tarixiy xotirasi mutlaqo farqlanadi. Shuning uchun siyosiy matnlarni tarjima qilishda matnning mazmunigina emas, balki uning kommunikativ maqsadi, ideologik yuklamasi, retorik ohangi, manipulyativ strategiyalari va konnotativ ma‘nolarini ham hisobga olish talab etiladi. Bunday murakkabliklar sabab tarjimon bir nechta metodlarni birgalikda qo‘llashi, har bir matn uchun optimal strategiyani tanlashi zarur.

Siyosiy matnlar tarjimasidagi asosiy muammolardan biri terminologiya bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun tarjimon avvalo kontekstual ekvivalent topish usuliga murojaat qiladi. Bu usulda so‘zning lug‘aviy ma‘nosidan ko‘ra, uning siyosiy tizimdagi funksiyasi va huquqiy-tashkiliy mohiyati hisobga olinadi. Masalan, *governo tecnico* so‘zini “texnik hukumat” deb tarjima qilish to‘liq ma‘noni bera olmaydi, chunki italyan siyosiy tizimida bu ifoda muayyan davrda partiyaviy manfaatlardan mustaqil mutaxassislar hukumatini anglatadi. Shu sababli bunday birlikni “mutaxassislar hukumati” deb kontekstga mos tarzda berish maqsadga muvofiq. Kontekstual ekvivalent usuli terminlarning siyosiy tizim farqlaridan kelib chiqadigan noaniqliklarni kamaytiradi va matnning mazmunan mos kelishini ta‘minlaydi.

Ikkinchi samarali metod neytrallashtirish strategiyasidir. Siyosiy matnlarda baholovchi va emotsional yuklangan iboralar ko‘p bo‘lganligi uchun ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish tarfkashlik yoki siyosiy pozitsiyani noto‘g‘ri yetkazishga sabab bo‘lishi mumkin. Neytrallashtirish metodi matnning ideologik keskinligini yumshatadi va uni xolis shaklda berishga xizmat qiladi. Masalan, *grave minaccia* iborasini “jiddiy tahdid” deb so‘zma-so‘z tarjima qilish auditoriyada ortiqcha siyosiy emotsiya uyg‘otishi mumkin. Shuning uchun “jiddiy xavf sifatida baholanmoqda” kabi yumshoq variantlar ko‘proq mos keladi. Bunday yondashuv tarjimaning diplomatik va neytral ohangini saqlab qoladi. Siyosiy matnlarning eng murakkab qatlami — metaforik konstruksiyalarni tarjima qilishda esa transformatsiya metodi qo‘llaniladi. Siyosiy metaforalar ko‘pincha maqsadli auditoriya uchun maxsus madaniy assotsiatsiyalar uyg‘otadi, shuning uchun ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish semantik buzilish keltirib chiqaradi. Metaforalarni transformatsiya qilishda tarjimon mazmuniy asosni saqlagan holda, o‘zbek tilidagi ekvivalent obraz yoki pragmatik jihatdan mos ifodani tanlaydi. Masalan, *un ponte verso il futuro* iborasini “kelajak sari ko‘prik” deb so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin bo‘lsa-da, siyosiy matnning ohangini hisobga olib “kelajak sari yo‘l ochuvchi siyosiy tashabbus” tarzida qayta qurish mazmunni to‘liqroq ifodalaydi. Transformatsiya metodi siyosiy metaforalar ostidagi g‘oyaviy mazmunni saqlagan holda, tarjimani madaniy moslashtirish imkonini beradi.

Izohli tarjima usuli siyosiy realiyalar, qonunlar nomi, tarixiy shaxslar yoki siyosiy partiyalar bilan bog‘liq iboralarda qo‘llaniladi. Italyan siyosiy matnlarida ko‘plab real obyektlar auditoriya uchun tanish bo‘lishi tabiiy, biroq ular o‘zbek o‘quvchisi uchun ko‘p hollarda begona hisoblanadi. Shu sababli tarjimon qisqa izoh yoki tushuntiruvchi qo‘shimcha orqali matnning pragmatik aniqligini ta‘minlaydi. Masalan, *Partito Democratico* iborasi bevosita tarjima qilinganda yetarli ma‘lumot bermaydi, izoh bilan “Italiyadagi markazchap siyosiy partiya” tarzida berilishi o‘quvchi uchun tushunarli bo‘ladi. Izohli tarjima usuli siyosiy kontekstni to‘liq anglash imkonini yaratadi.

Diskursiv tahlilga asoslangan tarjima yondashuvi siyosiy matnlarni tarjima qilishda juda muhim hisoblanadi. Bu metodda tarjimon matnning lingvistik tuzilishidan ko‘ra, uning kommunikativ maqsadini aniqlashga e’tibor beradi. Siyosiy matn informativ, persuasiva, mobilizatsion yoki legitimlashtiruvchi funksiyani bajarishi mumkin. Matnning qaysi funksiya ustuvor ekanini aniqlash tarjimonning strategiya tanlashda adashmasligiga xizmat qiladi. Masalan, hukumat bayonotida diplomatik ohang ustuvor bo‘lsa, siyosiy chiqishlarda persuasiva strategiyalari kuchli bo‘ladi. Diskursiv tahlil metodi siyosiy nutqning yashirin maqsadlarini tushunish va tarjimada ularni adekvat ifodalash imkonini beradi.

Ekologik tarjima yondashuvi siyosiy matnni maqsadli madaniyat “ekologiyasi”ga moslashtirishni nazarda tutadi. Bu usulda tarjimon matnning semantik tuzilishi bilan birga, o‘zbek tilidagi siyosiy nutq an’analarni, madaniy qabul qilish mexanizmlarini va auditoriyaning siyosiy tasavvurlarini hisobga oladi. Chunki bir xil siyosiy hodisa turli madaniyatlarda turli aks-sado beradi. Ekologik tarjima siyosiy matnni tabiiy, ravon va madaniy jihatdan mos shaklda yaratishni ta’minlaydi.

Shunday qilib, italyan siyosiy matnlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda qo‘llaniladigan metodlar bir-birini to‘ldiruvchi ko‘p qirrali strategiyalar majmuasidan iborat. Kontekstual ekvivalent semantik aniqlikni ta’minlasa, neytrallashtirish xolislikni saqlaydi; metaforik transformatsiya retorik ma’noni saqlab qoladi; izohli tarjima siyosiy kontekstni aniqlashtiradi; diskursiv tahlil matnning maqsadini aniqlash imkonini beradi; ekologik yondashuv esa tarjimoni madaniy jihatdan mos holatga keltiradi. Ushbu metodlarning uyg‘un qo‘llanishi siyosiy matn tarjimasini nafaqat mazmunan, balki pragmatik va semantik jihatdan ham to‘g‘ri, aniq va xolis tarzda yetkazishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baker, M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge, 2018.
2. Chilton, P. *Analysing Political Discourse: Theory and Practice*. Routledge, 2004.
3. Fairclough, N. *Language and Power*. Longman, 2015.
4. Hatim, B., Mason, I. *The Translator as Communicator*. Routledge, 2019.
5. Musolff, A. *Political Metaphor Analysis*. Bloomsbury, 2016.
6. Nida, E. *Toward a Science of Translating*. Brill, 2003.
7. Schäffner, C. *Political Discourse, Media and Translation*. Cambridge Scholars Publishing, 2012.
8. van Dijk, T. *Discourse and Power*. Palgrave Macmillan, 2008.
9. Zorzi, M. *Il linguaggio politico italiano contemporaneo*. Roma: Carocci Editore, 2017.
10. Dizionario di Politica. Il Mulino, Bologna, 2020.